O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Жиззах вилояти

130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov ko‘chasi, 1-uy, Tel. +99878 771-70-15, Faks: +99878 771-70-15, E-mail: jizzah_expertiza@mail.ru www.ekspertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy
Direktor: Kulmuradov Yusup Baxriyevich
Sana:22-04-2022 yil

Yig'ma ekspert xulosasi № 37950

Obyekt nomi «Jizzax viloyati G’allaorol tumani "G’o’bdin" MFY da 2022 yilda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturini amalga oshirish bo‘yicha ichki yo‘llarini joriy ta’mirlash»

Buyurtmachi – “Jizzax MYBX” DUK
Bosh loyihachi - «MEGATEK INJINIRING» MCHJ
Litsenziya - 13.12.2021 yil AL-002000 O‘zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi
Moliyalashtirish manbai - Davlat mablag'i.
Bosh pudratchi – Tender tanlovi asosida.
Qurilish turi - Joriy ta'mirlash.
Murojaat raqami: № 35942

1. Loyihalash uchun asos

1.1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarda “Obod qishloq” va “Obod mdxalla” dasturlarini amalga oshirish chora tadbirlari to’g’risida” gi 18.03.2022 yildagi PQ-172-sonli qarori.

1.2. “Jizzax MYBX” DUK tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan Texnik topshiriq.

1.3. “Jizzax MYBX” DUK va G’allaorol tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan nuqsonlar qaydnomasi.

1.4. “Jizzax MYBX” DUK va «MEGATEK INJINIRING » MCHJ o’rtasida 01.04.2022 yildagi 7M-sonli loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish uchun shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. “Jizzax MYBX” DUK ning 16.04.2022 yildagi 383-sonli murojaat xati.

2.2. “Jizzax MYBX” DUK tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan Texnik topshiriq.

2.3.“Jizzax MYBX” DUK va G’allaorol tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan nuqsonlar qaydnomasi.

2.4. “Jizzax MYBX” DUK tomonidan 2022 yilda tasdiqlangan “Narxlarni kelishish bayonnomasi”.

2.5. Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Jizzax viloyati G’allaorol tumani "G’o’bdin" MFY da 2022 yilda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturini amalga oshirish bo‘yicha ichki yo‘llarini joriy ta’mirlash rejalashtirilgan. Ob’yektlarda:

Mavjud yo‘l poyini mexanizmlar yordamida tekislash, mexanizmlar bilan yo‘l chetidan suv qochirish maqsadida ariqlar ochish, qum-shag‘al aralashmasidan 15 sm qalinlikda yo‘l asosini qurish, quvurlar ostiga 15 sm qalinlikda qum-shag‘al aralashmasidan asos yotqizish, d=325mm bo‘lgan metal quvurlar o‘rnatish, metal quvurlarni bitum bilan gidroizolyatsiya qilish, sheben qo‘shib yo‘l asosini nishabliligini to‘g‘irlash, yangi materiallar qo‘shib qum-shag‘al aralashmasi va shebendan yo‘l asosini talab darajasiga olib kelish, mexanizmlar yordamida 5sm qalinlikda mayda donali asfaltobeton qoplama yotqizish va qum-shag‘al aralashmasidan yo‘l chetini mustaxkamlash ishlari bajariladi.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Ob’yektni joriy ta’mirlash uchun tayyorlangan smeta xujjatlarida muhandislik ta’minoti ishlari rejalashtirilmagan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. “Jizzax viloyati G’allaorol tumani "G’o’bdin" MFY da 2022 yilda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturini amalga oshirish bo‘yicha ichki yo‘llarini joriy ta’mirlash” ob’yektida bajarilishi lozim bo’lgan ish turlari va hajmlar jadvali “Jizzax MYBX” DUK tomonidan o’rganib chiqib 2022 yilda tasdiqlangan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Smeta xujjatlari ekspertiza ko’rigiga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ob’ektning qurilish narxi “Qurilish iqtisodiyoti instituti” MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar va amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko‘ra) narxlar va “Jizzax MYBX” DUK tomonidan kelishilib tasdiqlangan “Narxlar kelishuv bayonnomasi”ni xisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim qilingan.

T/r	Qurulish ob’ekti nomi	Uzunligi km	Qoplama turi	Smeta bahosi, ming so‘m
1	Ko‘charbuloq qishlog‘i ko‘cha-1	0,725	QShA	44 199,563
2	Ko‘charbuloq qishlog‘i ko‘cha-2	1,169	QShA	93 561,779
3	Nurafshon qishlog‘i ko‘cha-1	0,480	QShA	38 780,912
4	Nurafshon qishlog‘i ko‘cha-2	0,356	QShA	27 456,750
5	Nurafshon qishlog‘i ko‘cha-3	0,630	QShA	68 764,098
6	Nurafshon qishlog‘i ko‘cha-4	0,440	QShA	43 503,095
7	Nurafshon qishlog‘i ko‘cha-5	0,366	QShA	28 166,322
8	Nurafshon qishlog‘i ko‘cha-6	0,495	QShA	50 111,950
9	Nurafshon qishlog‘i ko‘cha-7	0,580	QShA	44 733,813
10	Nurafshon qishlog‘i ko‘cha-8	0,640	QShA	58 300,367
11	Nurafshon qishlog‘i ko‘cha-9	0,630	QShA	59 753,224
12	Nurafshon qishlog‘i ko‘cha-10	0,310	QShA	33 836,333
13	G‘o‘bdin qishlog‘iga olib boruvchi yo‘l	1,000	A/B	552 664,836

	Umumiy qiymati			**1 143 833,042**

6.3. Ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining boshqa sarf – xarajatlarisiz va qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) 15% bilan – **1 143 833,042** ming so'm miqdorda taqdim etilgan smeta qiymati o'rganish natijasida **36 097,393** ming soʻmga ko'paydi va ob'yektning umumiy bahosi buyurtmachining boshqa sarf – xarajatlarisiz va qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) 15% bilan – **1 179 930,435** ming so'm qilib belgilandi.

T/r	Qurulish ob'ekti nomi	Uzunligi km	Qoplama turi	Smeta bahosi, ming soʻm
1	Koʻcharbuloq qishlogʻi koʻcha-1	0,725	QShA	49 464,740
2	Koʻcharbuloq qishlogʻi koʻcha-2	1,169	QShA	103 337,134
3	Nurafshon qishlogʻi koʻcha-1	0,480	QShA	43 203,224
4	Nurafshon qishlogʻi koʻcha-2	0,356	QShA	30 408,643
5	Nurafshon qishlogʻi koʻcha-3	0,630	QShA	75 732,905
6	Nurafshon qishlogʻi koʻcha-4	0,440	QShA	43 491,329
7	Nurafshon qishlogʻi koʻcha-5	0,366	QShA	31 201,133
8	Nurafshon qishlogʻi koʻcha-6	0,495	QShA	49 981,882
9	Nurafshon qishlogʻi koʻcha-7	0,580	QShA	44 733,813
10	Nurafshon qishlogʻi koʻcha-8	0,640	QShA	63 890,219
11	Nurafshon qishlogʻi koʻcha-9	0,630	QShA	59 720,497
12	Nurafshon qishlogʻi koʻcha-10	0,310	QShA	37 265,428
13	Gʻoʻbdin qishlogʻiga olib boruvchi yoʻl	1,000	A/B	547 499,489
	Umumiy qiymati			**1 179 930,435**

Shu jumladan:

– qurilish montaj ishlari (QMI) – **1 026 026,465** ming soʻmni;

– qoʻshimcha qiymat soligʻi 15% – **153 903,970** ming soʻmni tashkil etgan.

Ishchi quruvchilarning oʻrtacha bir soatlik ish xaqi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ chiqarayotgan 2021–yil IV chorak (kvartal) katalog asosida 13773,5982x1,12=15426,43 soʻm ijtimoiy sugʻurtaga ajratma 12% qabul qilingan. (Ijtimoiy sugʻurtaga ajratma foizi pudratchining haqiqiy harajatlari boʻyicha buxgalteriya hujjatlari asosida amalga oshiriladi).

Ta'kidlash joizki:

a). Smeta hujjatlarida nazarda tutilgan asosiy qurilish materiallari va uskuna (jixoz) larni xarid qilish tartibi belgilangan tartibda Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishi va asoslovchi xujjatlarga tayanilishi lozim. "Narxlar kelishuvi" toʻgʻrisidagi bayonnoma koʻrsatilgan narxlarning haqqoniyli buyurtmachi va loyiha tashkiloti, hamda oʻzaro hisob-kitob qilishda ShNQ 4.01.16-09 qoidalariga amal qilgan holda eng maqbul narxlar qabul qilinishi nazorati buyurtmachi tashkilot zimmasida qoladi.

b). Buyurtmachiga loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin quyidagilarni qayta koʻrib chiqish tavsiya etiladi:

- pudratchi boshqa xarajatlarining aniq sarfi;

- “Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari” ShNK 4.01.16-09 asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji narxlarini o‘z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlarining eng maqbullaridan olinishini;

- ish haqi xarajatlarining pudratchi tashkilotning o‘tgan 12 oydagi o‘rtacha oylik ish haqi darajasidan kelib chiqqan holda bir odam/soat ish haqidan olinganligi.

6.4. Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng, haqiqiy (ijro hujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi .

6.5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003–yildagi №261 qarori bilan tasdiqlangan “Qurilish ob’ektlari narxini joriy shartnoma narxlarida aniqlash tartibi to‘g‘risida vaqtinchalik qoidalar”ga va ShNK 4.01.16.09 ga binoan qurilishning narxi tavsiyaviydir. Tavsiya etilgan bahoni qabul qilish qarorini buyurtmachi va pudratchi birgalikda qabul qiladilar (ShNQ4.01.16-09, 6-bob. 6.4 -bandi).

6.6. O'zbekiston Respublikasi SHaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25 - moddalari xamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 17.09.2021 yildagi №579 - sonli qarorining 1 - ilova 3 - bob 29 - bandiga asosan "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik xujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.7. Nuqson dalolatnomasi xaqqoniyligi va ishonchliligi uchun javobgarlik buyurtmachi va loyiha tashkiloti zimmasiga yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. "**Jizzax viloyati G’allaorol tumani "G’o’bdin" MFY da 2022 yilda "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturini amalga oshirish bo‘yicha ichki yo‘llarini joriy ta’mirlash**" smeta hujjatlari ekspertiza natijalari va takliflarini inobatga olgan holda kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: Tajibayev Sharof Abdurashidovich